



## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI *2022-YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)*




## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022-yil yanvar -iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 9 189,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 109,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,7 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* %da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


*Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 166,7 % ga o'sishi hisoblanadi.*

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**




*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,5 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.*


**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**




### Ishlab chiqaradigan sanoat



2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 190,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 78,4 % ini tashkil etdi.





O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 %ni (2021-yilning yanvar-iyul oylarida – 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,7 % (6,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,8% (11,9%) va quyi texnologiyalisi – 78,2 % (79,9 %)ni tashkil etdi.





Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,3 % (2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,3 % (2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,6 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,5 % (2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,8 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,0 % (2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,5 % (2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,6 %) ni tashkil etdi

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari**




Omuxta yem ming t




Aroq ming litr 100% spirt




Uzum vinosi ming l




Paxta tolasi, ming tonna



Paxta chigiti, ming tonna



Paxta linti ming t




2022-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 74,6 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 1,2 % ga ko'paygan), 12,1 ming tonna paxta tolasi (56,6 % kamaygan), 8,2 ming. tonna yog' mahsulotlari (14,3 % ga ortgan) hamda 20,7 ming tonna paxta chigiti (51,3 %ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyul	2022-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	36,8	36,7	-0,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	73,7	74,6	0,9
Paxta tolasi, ming t.	27,9	12,1	-15,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	7,2	8,2	1,0


### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 91,3 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 1,3 %ni, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 86,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9% ni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 285,3 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 6,5 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 324,8 mlrd soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,5 %ni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1313,5 mlrd soʻmni, joriy 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1536,2 mlrd soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 17,0 %ga ortgan.



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 245,0 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 241,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 3,8 mlrd. soʻmga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,6 %ni tashkil etdi.

2021- yil

245,0

2022- yil

241,2

### Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1751,5 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 27,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2443,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 26,6 %ni tashkil etdi va 1,2 punktga kamaydi .

2021-yil

1751,5

2022-yil

2443,6

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 119,7 %ni yani jami 943,8 mlrd soʻmni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 100,6 % ni tashkil etib 951,7 mlrd. soʻmga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish oʻtgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 7,9 mlrd. soʻmga kamaygan.

2021-yil

943,8

2022-yil


951,7



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 141,0 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyati bo'yicha 282,0 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 3,1 %ni, tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 5,5 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 %ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 1,0 mlrd. so'mga ko'payib, 6,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,6 %ni yani 131,2 mlrd. so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 1,2 mlrd. so'mga ko'paygan va 132,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1845,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,08%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 657,4 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyul	2022-yil yanvar-iyul	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3819,4	3435,5	-383,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	48,9	44,9	-4,0

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 79,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyul	2022-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	45,3	52,7	7,4
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	6,7	5,6	-1,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 7,4 mlrd. so'm yoki 16,3 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,4 mlrd. so'mga kamaygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5153,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 117,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,1 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-iyul

33,1%

2022-yil  
yanvar-iyul

31,0%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-iyul

66,9%


2022-yil  
yanvar-iyul

69,0%

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 36,0 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,7 % ni, Chust tumani 8,8 % ni, Uchqurgan tumani 6,1 % , Uychi tumani 5,8 % ni tashkil etdi.*

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 2078,3 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 40,3 %, Chust tumanida 574,4 mlrd. so'm bo'lib, 11,1% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 517,8 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 10,0 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm



Namangan viloyati hududlari kesimida  
Sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 36,0 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,7 %ni, Chust tumani 8,8 %ni, Uchqo'rg'on tumani 6,1 % tashkil etdi.

Namangan viloyati

2021-yil

7263,8 mlrd. so'm

2022-yil

9189,5 mlrd. so'm

yanvar-iyul




2021-yil

112,8 %

2022-yil

109,1 %



FHI, %da

mlrd. so'm

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**


*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,2% shuningdek, Chust tumani 14,6 %, To'raqo'rg'on tumani 13,5 %ni tashkil etadi.*

**2582,3** mlrd. so'm

2021-yil yanvar-iyul

**3553,5** mlrd. so'm

2022-yil yanvar-iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




2021-yil

116,3 %



2022-yil

121,6 %




o'sish sur'ati

mlrd. so'm



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 37,6 %ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 10,9% ni, Namangan tumani esa 8,2 %ni tashkil etdi.*



1472,4 mlrd. so'm  
2021-yil yanvar-iyul


1599,6 mlrd. so'm  
2022-yil yanvar-iyul



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (8 471,3 ming so'm), Namangan shahrida (4 987,3 ming so'm), tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 120,2 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 749,7 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 3126,1 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 2 204,6 – Chust tumanida 2 083,9 ming so'mni, tashkil etdi.*

**Namangan viloyati**

**2021-yil**

1 407,7 ming. so'm

**2022- yil**

1 749,7 ming. so'm



**2021-yil**


115,5 %

**2022-yil**

115,3 %

*o'sish sur'ati*

*ming. so'm*






## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022-yilning yanvar –iyul oylarida %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2808,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,7 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqoʻrgʻon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (93,2 %) va Uychi (71,5 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichkina ulush Toʻraqoʻrgʻon (9,9 %), Uchqoʻrgʻon (17,6 %), Kosonsoy (35,5 %) va Norin (41,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin



2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7493 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 850 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,0 % i) Namangan shahriga, 570 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 552 tasi (7,4 %) Uychi tumaniga, 533 tasi (7,1 %) Namangan tumaniga, 535 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 473 tasi (6,3 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil

1033 dona

2022-yil

905 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021-yil

7163 dona

2022-yil

7493 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan